



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**Davlat umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy
sertifikatlashdan o‘tkazishni tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-fevraldagi 87-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 12-fevraldagi 87-son qarori (keyingi o‘rinlarda – Qaror) vazir o‘rinbosarlari, boshqarma va bo‘limlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan quyidagilar:

2023/2024 o‘quv yilidan boshlab pedagogik kasblarga birinchi marta ishga qabul qilinadigan oliy ma‘lumotli talabgorlar stajyor-o‘qituvchi (keyingi o‘rinlarda – pedagog kadrlar) sifatida faoliyat yuritishi va ular ishga qabul qilingan vaqtdan boshlab bir yil muddat davomida kasbiy sertifikatga ega bo‘lishi talab etilishi;

stajyor-o‘qituvchilarga ular kasbiy sertifikat olguniga qadar oliy ma‘lumotli (toifasiz) o‘qituvchining bazaviy tarif stavkasi qo‘llanilishi;

2023/2024 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida pedagog kasbiga birinchi marta ishga qabul qilingan stajyor-o‘qituvchilar, 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab esa bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarining tegishli toifaga ega bo‘lmagan pedagog kadrlari kasbiy sertifikatlash sinovlariga jalb etilishi;

kasbiy sertifikat olganidan so‘ng pedagoglar pedagogik faoliyatida besh va undan ko‘p yil davomida uzilishlar bo‘lgan faoliyatini qayta boshlagan vaqtdan

boshlab bir yil davomida kasbiy sertifikatga ega bo'lishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2024-yil mart-may oylarida o'tkaziladigan davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlashdan o'tkazishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi **1-ilovaga** muvofiq;

Davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash nazorat sinovlarini (keyingi o'rinlarda – nazorat sinovlari) o'tkazish tartibi to'g'risida yo'riqnoma **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlashdan o'tkazishni tashkil etish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarni muvofiqlashtirsin.

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda 2024-yil 1-martga qadar:

a) Reglamentga muvofiq ko'rsatiladigan davlat xizmatidan foydalanish uchun pedagog kadrlar faqat davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda –YIDXP) orqali joriy etilishini;

YIDXPda davlat xizmatlari ko'rsatilishining har bir bosqichida murojaatlarning ko'rib chiqilishi kuzatib borilishini;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali shaxsga doir ma'lumotlarni tegishli axborot tizimlaridan integratsiya orqali olishni;

b) **2024-yil 1-aprelga** qadar nazorat sinovlari kompyuterda (onlayn platforma orqali) o'tkazilishini inobatga olib mavjud **test.uzedu.uz** platformasini takomillashtirsin va kasbiy sertifikat sinovlarini o'tkazish imkoniyatlarini qo'shish choralari ko'rsin.

6. Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova), Respublika ta'lim markazi (Sh.Xudaykulov) bilan birgalikda uch hafta muddatda soha mutaxassislari, olimlar va amaliyotchi pedagoglarni jalb qilgan holda nazorat sinovlari spetsifikatsiyasini tayyorlash maqsadida ekspertlar guruhini shakllantirsin;

nazorat materiallari spetsifikatsiyasini topshiriqlar formati va baholash mezonlari ishlab chiqsin;

2024-yil 1-aprelga qadar topshiriqlar formati va baholash mezonlari asosida malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda nazorat sinov materiallarini ishlab

chiqsin;

nazorat sinov materiallarini sinovlar o'tkaziladigan smenalar sonidan kelib chiqib yetarli miqdorda, takrorlanmasligiga alohida e'tibor qaratgan holda ko'p variantlilik asosida ishlab chiqilish va maxfiyligini ta'minlash choralarini ko'rsin.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari:

2024-yil 25-fevralga qadar pedagog kadrlarni nazorat sinovlarida qatnashish bo'yicha davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXP orqali yuborilgan murojaatlarni ko'rib chiqishga mas'ul xodimlar ro'yxatini shakllantirsin;

2024-yil mart-may oylarida bo'lib o'tadigan nazorat sinovdan o'tish uchun pedagog kadrlar tomonidan davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXP orqali murojaatlarni qabul qilishni nazoratga olsin;

vazirlik tasarrufidagi ta'lim muassasalari rahbarlari bilan birgalikda davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotida pedagogik kasbga birinchi marta ishga qabul qilingan oliy ma'lumotli pedagog kadrlarni o'z vaqtida kasbiy sertifikatlash nazorat sinovlariga jalb etish choralarini ko'rsin;

pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash nazorat sinovlaridan o'tish lozimligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qilish hamda kasbiy sertifikatlashdan o'tkazish tartibi bilan tanishtirsin;

pedagog kadrlarni nazorat sinovlaridan o'tkazish va ularga kasbiy sertifikat berish bo'yicha yuborgan murojaatlarini 10 kun muddat ichida o'rganib chiqsin;

pedagoglar tomonidan yuborilgan murojaatlardagi ma'lumotlar to'g'ri qabul qilinganligiga shaxsan mas'ul etib belgilansin.

8. Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish bo'limi (I.Xoliqulov) kasbiy sertifikatlash bo'yicha nazorat sinovlarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni jamg'arma hisobidan qoplasin.

9. Axborot xizmati (D.Sobirova)ga:

tegishli bo'limlar bilan hamkorlikda pedagog kadrlar tomonidan davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXP orqali murojaatlarni yuborish bo'yicha videorolik tayyorlash;

kasbiy sertifikatlash joriy etilishining maqsadi hamda nazorat sinovlarni tashkil etilishi bilan bog'liq jarayonlarni ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, elektron ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti Yuridik boshqarma (X.Asrorov) bilan birgalikda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda qarorga muvofiqlashtirish choralarini ko'rsin.

11. Devonxona mudiri (X.Raximbayeva) oʻrnatilgan tartibda ushbu buyruqni tegishli tarkibiy boʻlinmalar, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmalariga yetkazsin.

12. Mazkur buyruqning ijrosi nazoratini oʻz zimmanda qoldiraman.

Vazir

Toshkent sh.,
2024-yil, 22-fevral,
51-son



X.Umarova

**2024-yil mart-may oylarida o'tkaziladigan davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy
sertifikatlashdan o'tkazishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar
DASTURI**

| T/r | Tadbirlarning nomlanishi | Amalga oshirish shakli | Amalga oshirish muddatlari | Mas'ul ijrochilar |
|------------|--|--|---|--|
| 1 | Davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlashdan o'tkazishni tashkil etish. | Onlayn murojaatlarini qabul qilish, talabgorlardan tushgan murojaatlarni o'rganib chiqish, nazorat sinovlarini tashkil etish, nazorat sinovlari natijalari asosida elektron sertifikatlarni shakllantirish bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirib borish. | Mart-may | Pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish va sertifikatlash bo'limi(U.Dusnazarov) |
| 2 | Pedagog kadrlar davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaatlar yuborishni hamda maxsus platforma orqali murojaatlarini ko'rib chiqishni joriy etish. | Manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali shaxsga doir ma'lumotlarni tegishli axborot tizimlaridan integratsiya orqali olishni ta'minlash. nazorat sinovlari kompyuterda (onlayn platforma orqali) o'tkazilishini inobatga olib mavjud test.uzedu.uz platformasini takomillash va kasbiy sertifikat sinovlarini o'tkazish imkoniyatlarini qo'shish. | 2024-yil 1-martga qadar 2024-yil 1-aprelga qadar | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) |
| 3 | 2024-yilda 1-martdan reglamentga muvofiq nazorat sinovidan o'tish uchun pedagog kadrlarning murojaatlarini qabul qilishni tashkil etish. | 1.Mart-may oylarida o'tkaziladigan pedagog kadrlar nazorat sinov ishtirokchilaridan murojaatlarni qabul qilish bo'yicha mas'ul xodimlar uchun o'quv seminar o'tkazish. | 2024-yil mart | Pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish va sertifikatlash bo'limi(U.Dusnazarov) |
| 4 | Nazorat sinovidan o'tish uchun pedagog kadrlarning murojaatlarini | Davlat xizmatlari markazlari, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali | 2024-yil mart-may | Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, |

| T/r | Tadbirlarning nomlanishi | Amalga oshirish shakli | Amalga oshirish muddatlari | Mas'ul ijrochilar |
|-----|---|--|--|--|
| | ko'rib chiqish qabul qilishni tashkil etish. | yuborilgan murojaatlarini belgilangan muddatlarda o'rganib chiqib, munosabat bildirish. Har bir murojaatlarni reglament talablari asosida o'rganish: 1. Pedagog kadrlarni nazorat sinovlaridan o'tkazish va ularga kasbiy sertifikat berish bo'yicha hujjatlarni qabul qilish mobaynida pedagog kadrlarning navbatdagi yoki navbatdan tashqari nazorat sinovlariga to'g'ri jalb etilayotganligini tekshirish. 2. Murojaatlarni qabul qilish jarayonida pedagog kadrlarni amaldagi ma'lumotlarini to'g'riligini aniqlash. 3. Pedagog kadrlarni nazorat sinovlarida o'tkazish va ularga kasbiy sertifikat berish bo'yicha har bir hujjatlarni 10 kun muddat ichida o'rganib chiqish. | | Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshliqlari |
| 5 | Pedagog kadrlar soniga mos holda auditoriya (sinf)lar soni asosida nazorat sinovini o'tkazish grafigini ishlab chiqish. | 1. Nazorat o'tish uchun ishtirok etuvchi pedagog kadrlar sonini aniqlash. 2. Pedagoglar sonidan kelib chiqib, ularga mos holda auditoriya (sinf)lar sonini belgilash. 3. Nazorat sinovini o'tkazish grafigini ishlab chiqish. | 2024-yil 10-aprelga qadar | Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti |
| 6 | Kasbiy sertifikatlash nazorat sinovlari topshiriqlar bankini shakllantirish. | 1. Tegishli o'quv fani bo'yicha nazorat sinov savol va topshiriqlarini tuzish uchun malakali ekspertlar guruhlarini shakllantirish. 2. Fanlar va tillar kesimida foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tasdiqlash va vazirlikning rasmiy sahifalarida e'lon qilish. 3. Fanlar va tillar kesimida topshiriqlar varianti mazmuni (spetsifikatsiyasi) va baholash mezonlarini, vaqt me'yorlarini fan ekspertlari ishtirokida ishlab chiqish, tasdiqlash va vazirlikning rasmiy sahifalarida e'lon qilish. | 2024-yil 15-mart 2024-yil 15-martga qadar | Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) |

| T/r | Tadbirlarning nomlanishi | Amalga oshirish shakli | Amalga oshirish muddatlari | Mas'ul ijrochilar |
|------------|---------------------------------|--|-----------------------------------|--------------------------|
| | | <p>4. O'quv fani va pedagogik mahorat bo'yicha nazorat sinov savol va topshiriqlarini tuzish.</p> <p>5. Nazorat sinovlari uchun tayyorlangan nazorat materiallari bankini ekspertizadan o'tkazish.</p> <p>6. Nazorat sinovlari sifatli, shaffof o'tkazish maqsadida nazorat sinov materiallarini sifatli tayyorlash, maxfiyligini ta'minlash, topshiriqlar takrorlanishini oldini olgan holda yetarli miqdorda tayyorlanishini ta'minlash.</p> | 2024-yil 15-aprelga qadar | |

**Davlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash
nazorat sinovlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida
YO‘RIQNOMA**

Mazkur Yo‘riqnoma “Davlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-fevraldagi 87-son qaroriga asosan pedagog kadrlarining nazorat sinov jarayoniga mutaxassislik fani bo‘yicha bilim darajasini aniqlash hamda pedagogik mahoratini baholash bo‘yicha nazorat sinovlari (keyingi o‘rinlarda – nazorat sinovlari)ni o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo‘riqnoma talablari kasbiy sertifikatga talabgor pedagog kadrlarning nazorat sinovini o‘tkazish jarayoniga nisbatan tatbiq etiladi.

2. Kasbiy sertifikatga jalb etiladigan pedagog kadrlarning nazorat sinovi qoida tariqasida, har yili mart-may oylarida hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) ichki imkoniyati hamda talabgorlarning murojaatlaridan kelib chiqib, tasdiqlangan jadval asosida yilning boshqa oylarida ham nazorat sinovlari o‘tkazilishi mumkin.

3. Mazkur Yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

talabgor — kasbiy sertifikat olishga da’vogar bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotidagi stajyor-o‘qituvchi yoki mutaxassis lavozimidagi o‘qituvchi;

auditoriya nazoratchisi — nazorat sinovini qat’iy nazorat qilishga mas’ul bo‘lgan va talabgorlarga nazorat sinovini topshirish tartibi bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatish uchun jalb qilingan mutaxassislar;

auditoriya rahbari — auditoriya nazoratchilari va talabgorlar harakatlariga umumiy rahbarlikni bajaruvchi, nazorat qiluvchi va amaliy yordam ko‘rsatuvchi mas’ul xodimlar;

Auditoriya rahbari va auditoriya nazoratchisi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyrug‘i tasdiqlanadi.

2-bob. Nazorat sinovini tashkil etish va o‘tkazish

4. Davlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentiga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Nazorat sinovlari matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika va axborot texnologiyalari fanlari va pedagogik mahorat uchun 120 daqiqa hamda gumanitar fanlari va pedagogik mahorat uchun 90 daqiqa vaqt beriladi.

6. Nazorat sinovi o'tkazish paytida talabgorlar har qanday sabab bilan auditoriyadan chiqishi taqiqlanadi, nazorat sinovi to'liq yakunlagan talabgorlar bundan mustasno (talabgorning sog'lig'i yomonlashgan hollarda auditoriya nazoratchisi va tibbiyot xodimlari kuzatuv ostida auditoriyadan chiqishga ruxsat beriladi). Uzrsiz sabablarga ko'ra auditoriyadan chiqqan talabgorlar qaytadan nazorat sinoviga qo'yilmaydi.

7. Nazorat sinovi savollariga e'tirozlar bo'lgan holatlarda, mazkur Yo'riqnomaga 1-ilovaga muvofiq shakldagi nazorat sinovlari bo'yicha e'tiroznoma rasmiylashtiriladi.

Auditoriya rahbari kunlik nazorat sinovlari yuzasidan tushgan e'tirozlarni elektron platforma tizimiga shu kunning o'zida to'liq kiritib boradilar.

E'tirozlar nazorat sinovlari tugagach, Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan jalb etilgan fanlar bo'yicha ekspertlar tomonidan o'rganib chiqiladi hamda nazorat savollari bo'yicha e'tirozlar o'rinli deb topilganda, tegishli to'g'ri javoblar uchun ball qo'shib beriladi.

8. Quyidagi holatlarda talabgor nazorat sinovlari o'tkazish tartibini buzgan hisoblanadi hamda nazorat sinovlaridan chetlashtiriladi:

nazorat sinovlari o'tkaziladigan auditoriyaga kirishda talabgor kitob, uyali telefon, telekommunikatsiya vositalari, boshqa vositalar va shpargalkalar olib kirishga harakat qilsa yoki olib kirganligi aniqlansa;

nazorat sinovlari davomida shpargalkalardan foydalansa, ularni boshqa talabgorga uzatsa yoki yordam bersa;

nazorat sinovlari jarayonida boshqa talabgorlar bilan o'zaro suhbatlashsa;

nazorat savollarini yozma yoki telekommunikatsiya vositalari orqali auditoriyadan tashqariga olib chiqsa yoki olib chiqishga harakat qilsa;

nazorat sinovlari jarayonida shovqin ko'tarsa yoki boshqa talabgorlarga xalaqit bersa;

nazorat sinovlari uchun ajratilgan vaqt tugamasdan ruxsatsiz auditoriyadan tashqariga chiqsa.

nazorat sinovlari o'tkazish tartibini buzgan talabgorlarga nisbatan auditoriya rahbari va nazoratchisi tomonidan mazkur Yo'riqnomaga 2-ilovaga muvofiq shaklda nazorat sinovidan chetlashtirish to'g'risida dalolatnoma tuzilib, nazorat sinovlaridan chetlashtiriladi.

9. Talabgorlar nazorat sinovidan chetlashtirilgan taqdirda, nazorat sinovidan o'tmagan hisoblanadi hamda uning to'plagan balli inobatga olinmaydi.

10. Talabgorlar tomonidan nazorat sinovlarini to'liq yoki qisman topshirish imkoniyati bo'lmagan quyidagi holatlarda ular uchun nazorat sinovlari qayta o'tkaziladi:

nazorat sinovlarini o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy-texnik nosozliklar va kamchiliklar sodir bo'lsa;

elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar sababli nazorat sinovlarini o'tkazish imkoni bo'lmasa yoki nazorat sinovlari oxiriga yetmay qolsa;

talabgorning sog'lig'i yomonlashganligi sababli auditoriya rahbari yoki nazoratchisi tomonidan dalolatnoma rasmiylashtirish orqali auditoriyadan tashqariga olib chiqilgan bo'lsa.

11. Nazorat sinovi tugaganidan soʻng auditoriya nazoratchisi tomonidan mazkur Yoʻriqnomaga 3-ilovaga muvofiq shakldagi nazorat sinovida ishtirok etganlik toʻgʻrisidagi qaydnomaga talabgorning ishtirok etganligini tasdiqlovchi imzo qoʻydirib olinadi.

4-bob. Yakuniy qoida

12. Nazorat sinovini shaffof holda oʻtishini taʼminlash va nazorat qilish Vazirlik va uning tarkibiy boʻlinmalari, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat umumiy o'rtta ta'lim tashkilotlari
pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash
nazorat sinovlarini o'tkazish tartibi
to'g'risidagi yo'riqnomaga
1-ILOVA

Nazorat sinovlari bo'yicha e'tiroznoma

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
apellyatsiya komissiyasiga

(talabgorning F.I.SH. yashash manzili)

(talabgorning telefon raqami)

Talabgor ID: _____ -

| Hudud nomi | Tuman (shahar) nomi | Fan nomi |
|------------|---------------------|----------|
| | | |

1) Quyidagi test savollariga e'tirozimni ko'rib chiqishingizni so'rayman:

| T/r | Test savoli raqami | E'tiroz mazmuni |
|-----|--------------------|-----------------|
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |

2) Nazorat sinovlari jarayoni bo'yicha quyidagi e'tirozimni ko'rib chiqishingizni
so'rayman:

(talabgorning F.I.SH.)

(imzo)

(sana)

Auditoriya nazoratchisi _____

(F.I.SH.)

(imzo)

(sana)

Davlat umumiy o'rtta ta'lim
tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy
sertifikatlash nazorat sinovlarini
o'tkazish tartibi to'g'risidagi
yo'riqnomaga
2-ILOVA

**Nazorat sinovidan chetlashtirish to'g'risida
DALOLATNOMA**

Hudud nomi _____ bino _____ xona
_____ guruh _____ fan _____

“ _____ ” _____ 2024-yil _____
(dalolatnoma tuzilgan joy nomi)

Biz, quyida imzo chekuvchilar, shuni tasdiqlaymizki, talabgor _____

(tuman(shahar), ta'lim tashkiloti nomi F.I.SH., talabgor IDsi)

Guruh _____, Fan nomi _____ Fan tili _____

(nazorat sinovidan chetlashtirish sababi)

Soat _____ : _____ daqiqada nazorat sinovidan chetlashtirildi.

Auditoriya rahbari _____ imzo _____

Auditoriya nazoratchisi _____ imzo _____

Davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash nazorat sinovlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga
3-ILOVA

**Nazorat sinovida ishtirok etganlik to'g'risida
QAYDNOMA**

Hudud nomi: _____

Guruh raqami: _____

Sana: _____

Vaqt: _____

| T.r | Tuman (shahar) nomi | Ta'lim tashkiloti raqami | F.I.SH | Test topshirilgan fan | Imzo |
|------------|----------------------------|---------------------------------|---------------|------------------------------|-------------|
| 1. | | | | | |
| 2. | | | | | |
| 3. | | | | | |
| 4. | | | | | |
| 5. | | | | | |
| 6. | | | | | |
| 7. | | | | | |
| 8. | | | | | |
| 9. | | | | | |
| 10. | | | | | |

Auditoriya rahbari _____

imzo _____

Auditoriya nazoratchisi _____

imzo _____